

BALIQCHI TARIXI VA ZIYORATGOHLARI

Xamidova Rislig'oy Farhodovna

Andijon davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

Umaraliyev Boburjon Sobirjon o'gli

Andijon davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Mahmudov Zoirbek Tohirjon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimdan Baliqchi qanday nomlar bilan atalgani, ushbu hududda yashagan ulug' shaxslar haqida so'z boradi. Xususan, Baliqchi qishlog'i va uning atrofidagi qishloqlar tarixi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Baliqchi, Chinobod, Qo'qon xonligi, Sheralichek, Xudoyorxon, Mirzaboshchek, Yettiog'in, maqbara, qabriston, Hisor tepaligi, Qora daryolari.

Abstract: The article talks about the meaning of the word Fisherman, what names this country was called in ancient times, and what great people lived in the Fisherman's territory. In particular, we will study when the village of Baliqchi and its surrounding villages came into being.

Key words: Baliqchi, Chinobod, Kagan khanate, Sheralichek, Khudayarkhan, Yetti Agha Inn, mausoleum, cemetery, school, Hisar hill, Kara and Norin rivers.

Аннотация: В статье рассказывается о значении слова Рыбацкий, какими именами называлась эта страна в древности и какие великие люди жили на Рыбацкой территории. В частности, мы изучим, когда возникла деревня Балыкчи и окружающие ее деревни.

Ключевые слова: Балыкчи, Чинобот, Каганское ханство, Шераличек, Худаярхан, гостиница Етти-ага, мавзолей, кладбище, школа, холм Хисар, реки Кара и Норин.

KIRISH

Baliqchi - Andijon viloyatidagi tuman bo'lib, viloyatning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Namangan viloyatining Norin tumani va Andijon viloyatining Izboskan, Shahrixon, Oltinko'l, Bo'z, Ulug'nor tumanlari bilan chegaradosh. Hozirgi maydoni 0,34 ming km. Aholisi esa hozirgi kunda 200 mingdan ziyod. Baliqchi tumanida ikkita shahar, (Baliqchi va Chinobod) va 8 ta qishloq fuqorolari yig'ini (Olimbek, Bo'ston, Guliston, Ohunboboyev, Siza, Xo'jaobod, Eski Haqqulobod, O'rmonbek) bor.

"Baliqchi" yasama so'z bo'lib, qadimgi turkiy yodgorliklarida "Baliq" ko'rinishida ishlatilganligi to'g'risida ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borgan ekan. Bu so'z Tunyuquq yodgorliklarida, Manafey, Turfon bitiklarida "shahar" ma'nosida tushunilgan. Masalan, Turfon bitiklarida "Ertamish undin bir baliq bor erti" ya'ni qadim zamonlarda bir buyuk shahar bor erdi, deb yozilgan. Eltaras nomli xoqon sharafiga 690-693 yillarda bitilgan yodnomalarda "qamuq balikka tagdim", ya'ni "ko'p qo'rg'onlarga hujum qildim", deyiladi. Manixey matnlarida esa, "baliqdan-baliqqa, ulushdan-ulushga, eldin-elga tinchi, sovchi bo'lib yurdik", ya'ni "shahardan-shaharga, qishloqdan-qishloqqa, eldan -elga so'z olib

boruvchi , sovchi bo‘lib yursak” , deb bitilgan. Mana shunga o‘xshash ma‘lumotlarga asoslanib, Baliqchi istiqomat joyi sifatida kamida 1500 yil ilgari vujudga kelgan degan farazlarga borish mumkun. Chunki Maxmud Qoshg‘ariy “baliq” so‘zi islom paydo bo‘lishidan oldingi davrlarda turklar va uyg‘urlar tilida “shahar” ma‘nosida qo‘llanilganligi , lekin bu so‘z xalq tilida X-XI asrlarga kelib eskirganligini yozgan. XII asrda yaratilgan O‘g‘uzxon haqida yodgorliklarda “baliq” so‘zi “shahar” ma‘nosida ishlatilganligi ham Qoshg‘ariyni fikrini tasdiqlaydi. D.N.Logofetning 1911-yilda Moskvada bosilgan “Вухарское ханство под русским диктатом” “Buxoro xonligi Chor mustamlakachilari hukumiy ostida” nomli kitobning birinchi jildida 155 sahifasida yozilishicha, O‘zbeklarning bir urug‘i “Baliqchi”, deb atalgan. Mana Baliqchi so‘zi umuman hayvonga ta‘luqli emasligini ham bilib oldik. Bu so‘z baliq-balig‘-baluq , shahar tarzida VII-X asrlarga oid qadimgi turkiy obidalar - Tunyuquq, Moniy, yodgorliklari, Turfon matnlarida qayd etilgan. Baliq o‘rdu, shahar va saroy, baliq ulus, shahar va qishloq tarzida juft so‘z bo‘lib ham qo‘llanilgan. XIII-XIV asrga oid ayrim yodgorliklarda baliq shaklida uchraydi.1

1974-1975 yillarda ham Andijon viloyati o‘lkashunoslik muzeyidan arxeologlar, qadimshunoslar kelib Sortepada qazish ishlarini olim Baxtigul Abdug‘oziyeva boshchiligida olib borildi. Sortepadan topilgan mehnat qurollari

1 Shukur Qurbon. Baliqchiliklar/Sh.Qurbon-Toshkent:Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy nashryoti, 2008. 15- bet

hamda sopol idishlar janubiy-g‘arbiy Tojikistondan topilgan “Hisor madaniyati”ga oid deb hisoblangan, Baliqchining paydo bo‘lish tarixi miloddan avvalgi III-II asrlarga to‘g‘ri keladi, deyiladi. Xulosa chiqaradigan bo‘lsak u hozirgi kunda 2200-2500 yoshda .

XI asrdayoq baliq so‘zi arxaiklashgan. Baliq – johiliyat davridagi turklar va uyg‘urlar tilida – “shahar” deyishgan. Uyg‘urlarning eng katta shahari Beshbaliq ya‘ni besh shahar demakdir. Baliqchining yana bir tarixi Sulaymon payg‘ambar nomi bilan bog‘lanadi. Roviylarning xabar berishicha , Qoradaryo bo‘yidagi bu qishloqda, o‘sha Qo‘qon shahridan ko‘chib kelib, oilasi bilan yashayotgan baliqchi otaning yoniga kelib, Xudo tomonidan dunyo ins-jinlar, dev-parilari, parranda-yu darrandalarning hukumdori martabasiga erishgan xazrat Sulaymon ham baliq ovlab yashagan ekanlar. Sababi uzugini Qoradaryoga tushirib yo‘qotgan ekan. Va shu zahotiy oq hukumronlik rutbasiga vaqtincha nuqta qo‘yilgan ekan. Siz “Sulaymon o‘ldi devlar qutildi” degan gapni ko‘p eshitgansiz . Demak uzuk yo‘qolgan chog‘da nafaqat devlar balki butun hayvonlar ham ma‘lum vaqt qutilgan ekan. Sulaymonni kunlardan bir kun daryoga to‘r tashlab baliq ovlaganda bir baliq to‘riga ilindi o‘sha uzugini yutib yuborgan baliq edi uni qornini yorib uzugini qo‘liga taqishi bilan o‘z hukumronligini qaytardi. Va o‘sha o‘ziga yordam bergan baliqchi cholni o‘z saroyiga taklif qilib mehmon qildi. Va Suloymon o‘z xizmatkorlariga Qoradaryoni oldida shahar qurushni buyuradi. Suloymon bilan yashagan cholning kichik qizini yoqtirib qolib u bilan turmush quradi. Aytishlaricha, ulardan 7 farzand bo‘lgan bularni xalq tilida yeti og‘a-inilar deyishadi. “Tuzloq momo” o‘sha yettovining eng kichigi, demak , uning ukasi bo‘lmagan, balki uning og‘alari bo‘lgan deydi. O‘zlaricha bularning nomini sanaydilarl: “So‘fi ota, G‘oyib buva, Burxon ota , Said ota, Qurmon aziz buva, Nurvalixon ota, ” shulardan iboratdir. Baliqchida bulardan boshqa qadimiy qadam jolar bor bularni sanab o‘tish joizdir. “So‘fi ota” qabristoni Baliqchi tumani, X. Ergasheva shirkat xo‘jaligi, Turkiston qishlog‘ida

joylashgan bo'lib, u "So'fi ota" qabriston deb nomlanadi. "So'fi ota" qabristoni taxminan eramizdan ikki yarim asr (1750-1756yil) ilgari vujudga kelgan. "So'fi ota" qabristonida ham masjid, maqbara minorasi mavjud. Bu maqbaraga "So'fi ota" dafn qilingan. Maqbara ikki xonadan iborat bo'lib, birinchi xona chilla xona, ikkinchi xonaga "So'fi ota" qabri joylashgan. "So'fi ota" qabristoni masjidi, maqbarasi o'tmishda hashar yo'li bilan suvoqchi-usta duradgorlar yordamida ta'mirlab kelingan.

XVIII asrning 1898-1899 yillariga kelib, katta ta'mirlash ishlari olib borilib, anchagina yaxshi ko'rinishga ega bo'lgan. Mustaqillikka erishganimizdan keyin ham mahalliy axoli hashar yo'li bilan maqbara bir necha marta homiylik tomonidan ta'mirlangan, obodonchilik va tozalov ishlari olib borilgan. Biz ta'rif- tasnifini aytib ulug'langan aziz avliyolardan biri bu Tuzlik momomizdir. Tuzlik momo ziyoratgohi Sheralichek hududida, eski Do'msaroy qabritoni oldida, sariq suv zovurining bo'yida joylashgan. Ziyoratgohda "Sarob" nomi bilan atalgan ikki hovuz bor. Hovuzning maqtovg'a sazovor xislati juda ko'p bo'lib, u shifobaxsh hisoblangan, biri erkaklar, ikkinchisi esa ayollar uchun mo'ljallangan. Suvi xaddan ziyod sho'r bo'lib, temirki, xar-xil toshmalar, yaralar va inson jismidagi og'riqlarga shifo bo'ladi. Ziyoratga keluvchilar, bilgan va eshitganlar uchun Tuzlik momomizning haftaning har chorshanba kunlarida ziyorat qilishadi. Bulardan Baliqchida joylashgan me'moriy madaniy meros obektlari va bir qancha ziyoratgohlar mavjud bulardan:

1. "Amir Hamza" masjidi 1989 yil qurilgan.

Manzili: Go'ravon qishlog'i.

2. "Oxun buva" maqbara 1956 yil qurilgan.

Manzili: O'rtaqo'rg'on MFY.

3 "Xotamxon to'ra" masjidi 1910 yil qurilgan.

Manzili Kattabuloq MFY.

4. "Mamarizo xoji" masjidi 1965 yil qurilgan

Manzili: Zaxkash MFY.

5. "Mulla Xidirali" masjidi 1988 yilda qurilgan.

Manzili: Chinobod markazi Oxunboboev MFY.

6. "Qaqirchek" masjidi 1896 yilda qurilgan.

Manzili: A. Mo'minov shirkati xo'jaligi Qaqirchek mahalasi.

7. "So'fi ota" maqbarasi 1780 yili kurilgan.

Manzil: Guliston MFY.

8. "So'fi ota" masjidi 1750-1756 yili qurilgan.

Manzili Turkiston MFY.

9. Baliqchi tong Choyxonasi 1974- 1975 yillarda qurilgan.

Manzili: Baliqchi markazi.

10. Otalar choyxonasi" Choyxona 1992- 1993 yili kurilgan.

Manzil: Go'rvon qishlog'i.

11. Soratepa" tepaligi. Tepalik kurilgan vaqti I-V-VIII asrlarga to'g'ri keladi. Arxiologik ziyoratgoh hisoblanadi. Manzili: Bo'ston QFY xududi.

12. "Doxmatepa" tepaligi. Tepalik kurilgan vaqti VIII-X asrlargato'g'ri keladi. Tepalikmozor ziyoratgoh hisoblanadi. Manzil: Bo'ston QFY xududi.

13. "Mozor tepa" tepaligi. Tepalik mozor ziyoratgoh hisoblanadi.

Manzil:Ko'rik MFY xududi.

Baliqchi qishlog'i Qo'qon xonligi davrida ham muhim ahamiyat kasb etgan. XVIII asr oxirlari - XIX asr manbalarida Qo'qon xonligi beklilik, ba'zan viloyat va sarkorlik sifatida tilga olingan ma'muriy - hududiy qismlarga bo'lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalarda, Qo'qon xonligidagi dastlab quyidagi 15 ta beklilikning nomini keltirib o'tiladi - Qo'qon va uning atrofi, Marg'ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So'x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Koson, Chust va Bobo darhon, keyinchalik esa ularga qo'shimcha tarzda Asaka, Marg'ilon, Baliqchi O'sh, So'x, Koson va O'zgan ham sarkorlik sifatida ko'rsatiladi.² Qo'qon xonligi davrida Baliqchi beklilik bo'lib bir vaqtning o'zida qurol yaroq ombori bolib hizmat qilgan. Qo'qon xoni Xudoyorxon (1845-1875) buyrig'i bilan Baliqchi qishlog'ini atrofiga yangi qishliqlar qurish haqida farmon beradi va o'z noiblarini jo'natadi.Xonning shaxsan o'zi Chinobod qishlog'ini qurilishiga boshchilik qilgan.

2 Mulla Qurbon Xaydarali o'g'li. Baliqchi tarixidan xikoya va rivoyatlar.- Toshkent:Fan, 2008. 38-bet. Olimov Nodirbek Baliqchi tumani tarixi "G'alaba gazetasi" 2023y.

Yani bu xozirda Chinobod shaxarchasi paydo bolganiga 200 yildan oshmagan. Xoning noiblaridan Mirza boshi , Sherali sarkor, Nasridin , Qoqirbek kabi bir qancha noiblarini jo'natgan va shu noiblari bilan ataladigan qishloqchalar bor bulardan masalan,Mirzaboshchek, Sheralichek, Nasriddinchek, Mallachek va Qoqirbek va hakoziolar. Baliqchi shaharchasini oldida Go'rovon degan qishloq joylashgan bu qishloq nomi qadimdan "Go'ri obod" deb atalgan. Aytishlaricha, Qo'qon shahridan ulug' ulamolar tashrif buyurganda, bu yerlardagi go'rlarni ko'rib bu yurtlarni "Go'ri obod ekan" degan ekan shu munosabat bilan bu ulug' insonni gaplarini eslab yurish uchun bu qishloqni nomini "Go'rovon " dep atashar ekan. Baliqchini yana bir katta qishloqlaridan biri "Guliston" qadimda nomi "Gadoy topmas" qishlog'i dep atalgan . Bu qishloq aynan bu nom bilan atalishi yurtimizga arablar bostirib kelgan chog'larga borib taqalar ekan. Bir qancha arablar bu yerlarga o'rgangani kelganda shunday degan ekan "Biz-ku topib keldik, ammo bu qishloqni badoy ham topmast ekan " degan ekan . Bundan oldin qishloqni nomi "So'fi ota " qishlog'i dep atalgan hozirda esa bu qishloqni nomi "Guliston " dep ataladi. Guliston qishlog'ini oldida "Chonqoyma" degan bir kattakon qishloq mavjud. Bu nom odamga bir eshitalishida kulgili va g'alati tuyilishi mumkun . Ulug'larning aytishicha bu qishloqni nomi "Chonqoyma " emas "To'nqoyma" ekan.Sababi ,qaysi bir azizlarimiz to'nini yechib nomoz o'qiyotgan ekan . Namozini o'qib bo'lib qarasaki, to'ni qo'ygan joyda yo'q. Kimdir yashirib qo'ygan ekan. Shunda bu yerga "To'n qo'yma, o'g'irlab ketadi" deb sherigiga aytgan ekan. Xalq bu ulug' zotning tabarruk so'zini eslab yurish uchun bu qishloqni nomini "Chonqo'yma" dep atashar ekan.

Xulosa: Xulosa qilganda, Baliqchi qadimgi shaharlardan biri hisoblanadi. Baliqchi hududlarida joylashgan qadimgi madaniy me'moriy obidalar, diqqatga sazovor bo'lgan qadam jolarni saqlash va uni kelajak avlodga yetgazish bizning burchimizdir. Bu yerda joylashgan ziyorotgohlarni asrash va ularni vaqti kelganda tiklash xalqning qo'lidadir. Bir so'z bilan aytganda, Baliqchi Qo'qon xonligi davrida ham Buxoro xonligi tasarrufida

bo'lganida ham o'z mavqeyini yo'qotmagan shahar. Baliqchi yaqin bir necha asr ilgari paydo bo'lmagan milodiy I –V asrlarda ham odamlar istiqomat qilingani isbotlangan. Sortepa manzilgohidan metall buyumlar , sopol idishlar, uy anjomlarini qoldiqlari topib o'rganilib, Baliqchining boy madaniy tarixi yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mulla Qurbon Xaydarali o'g'li. Baliqchi tarixidan xikoya va rivoyatlar.- Toshkent:Fan, 2008.
2. Shukur Qurbon. Baliqchiliklar/Sh.Qurbon-Toshkent:Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy nashryoti, 2008.
3. Olimov, N. Baliqchi tumani tarixi/N.Olimov//G'alaba.-2023.-26apr.